

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBİ VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.

Yarashev Muxammad Farid o'g'li

Òzbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi.

Bank hisobi, auditı va nazorati yònalishi magistranti.

Ilmiy rahbar: prof. Ibragimov Abdugafur

ANNOTATSIYA *Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish ko'rib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *Tijorat banklari, valyuta operatsiyala, bank daromadlari, bank xarajatlari, bank auditı, moliyaviy natijalar, auditni rejalashtirish, auditorlik.*

IZLANISH METADALOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti turli mamlakatlarning valyutalari qiymatining o'zaro nisbatini o'lchashni talab etadi. SHu sababli valyuta kursi valyuta tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Valyuta kursining zaruriyati quyidagilarda ifodalanadi:

- tovarlar va xizmatlar bilan savdo qilishda, kapital va kreditlar harakatida valyutalarni o'zaro almashtirish uchun; bunda, eksporter kelib tushgan chet el valyutasini milliy valyutaga almashtiradi. CHunki boshqa mamlakatlarning valyutalari mazkur davlat hududida qonuniy xarid qilish va to'lov vositasi sifatida muomalada aylana olmaydi. Importyor chet eldan sotib olgan tovarlarini to'lash uchun milliy valyutani chet el valyutasiga almashadi. Qarzdor esa qarzini to'lash uchun va tashqi qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash uchun chet el valyutasini sotib oladi;
- jahon va milliy bozor baholarini taqqoslash, shuningdek, milliy va chet el valyutalarida ifodalangan turli mamlakatlarning baho ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun;

– firma va banklarning chet el valyutasidagi hisob varaqlarini vaqti-vaqti bilan qayta baholash uchun valyuta kursi zarur.

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosidir. Tashqi valyuta kursi almashuv qatnashchilari uchun valyuta bozoridagi talab va taklif nisbati orqali aniqlanadigan bir valyutani boshqasiga qayta hisoblash koefitsientidir. Biroq valyuta kursining qiymat asosi bo‘lib valyutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Valyutaning xarid qobiliyati investitsiya, tovar va xizmatlarning o‘rtacha milliy narxlari darajasini ifodalaydi. Bu iqtisodiy (qiymat) kategoriyasi tovar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lib, u tovar ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori o‘rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy shartlarining keng ko‘lamli ifodasi bo‘lgani uchun, turli mamlakatlarning milliy pul birliklarining taqqoslanishi qiymat munosabatiga asoslanadi va u ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarida yuzaga keladi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda sotib oluvchilar valyuta kursi yordamida milliy narxlarni boshqa mamlakat narxlari bilan solishtiradilar. Taqqoslash natijasida mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarish yoki xorijda investitsiyani rivojlantirishning foydaliligi darajasi ko‘rinadi. Qiymat qonuniga qanchalik amal qilinmasin, oxir oqibat valyuta kursi uning ta’siriga bo‘ysinadi. Valyuta kursi valyutaning real kurs nisbatlari ko‘rinadigan milliy va jahon iqtisodiyotlarining o‘zaro aloqasini ifodalaydi.

Tovarlar jahon bozorida sotilayotganida milliy mahsulot qiymatini internatsional o‘lchovlari asosida jahon talabiga ega bo‘ladi. SHuningdek, ushbu tovarlarning jahon xo‘jaligi doirasida almashinishida valyuta kursi vositachi bo‘ladi. Valyuta kursining qiymat asosi shu bilan shartlanadiki, oxirgi navbatda jahon narxlariga asoslangan ishlab chiqarishning internatsional bahosi jahon bozoriga asosiy tovar etkazib beruvchi mamlakat ishlab chiqarishning milliy baholariga tayanadi. Xalqaro kapital harakatining tez o‘sishi bilan tovarlarga, shuningdek, moliyaviy aktivlarga nisbatan valyutaning xarid qobiliyati valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatadi. n Turli mamlakatlarning valyutalari va halqaro

pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlariga xizmat ko'rsatish jarayonida valyuta kursi aniqlanadi. Kapitalning xalqaro xarakatining tez o'sishi bilan bog'liq ravishda valyuta kursini o'zgarishiga valyutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bilan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta'sir kursatadi.

Valyuta kurslari tasnifi

Kurs o'rnatish mezonlari	Valyuta kursining turlari
1. Belgilash turi bo'yicha	Suzuvchi, Qat'iy belgilangan, aralash
2. Hisoblash usuli bo'yicha	Paritet, haqiqiy kurs
3. Nisbat bo'yicha	Kross kursi, to'g'ri, egri (teskari), fiksing
4. Bitim turi	Spot – kurs, muddatli bitim (forward) kursi
5. O'rnatish joyi	Rasmiy (MB), tijorat (banklar), qora bozor
6. Valyutaning xarid qobiliyati paritetiga nisbatan	Paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
7. Bitim qatnashchilari bo'yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
8. Inflyasiyani hisobga olish bo'yicha	real kurs, nominal kurs, o'rtacha

Qonuniy normalarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valyutasining kursining kimmatli kogoslar kursini yoxud tovarlar bahosini o'rnatilishi katirovkalash deb ataladi. g'ki kiskacha qilib aytganda valyuta kursini o'rnatish katirovkalash deb ataladi. Jaxon amaliyotida katirovkalashning 2 xil usuli mavjud;

1) to'g'ri katirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining baxosi milliy valyutada kursatilsa, ya'ni milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan miqdor kursatilsa, bu to'g'ri katirovkalash deb ataladi. Masalan, 2003 yilning 30 sentyabrida 1 AQSH dollariga nisbatan o'zbek so'mining kursi 975,00 so'mni, 1 Rossiya rubliga nisbatan 31,97 so'mni tashkil etdi. Bu to'g'ri katirovka bo'lib bunday katirovkalash hozirgi vaktda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

2) Egri (teskari) katirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori urnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi baxosi kursatiladi, masalan;

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{975,00} \text{ AQSH dollari yoki}$$

$$1 \text{ AQSH dollari} = 975,00 \text{ so'm}$$

$$1 \text{ so'm} = \frac{1}{31,97} \text{ Rossiya rubli yoki}$$

$$1 \text{ Rossiya rubli} = 31,97 \text{ so'm}$$

Agarda ikki valyuta o'rtasidagi nisbat kandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniklansa, bunday nisbatni «kross-kurs» deb ataladi.

Masalan: 1 \$ AQSH dollari = 31 Rossiya rubli

$$1 \text{ \$ AQSH dollari} = 5 \text{ Ukraina grivna}$$

$$1 \text{ Ukraina grivna} = 6,2 \text{ Rossiya rubli}$$

Ko'rinib turibdiki, (kross-kurs) yukorida keltirilgan nisbat Ukraina girivnasining Rossiya rubliga nisbatan aniklangan kross-kursidir. Ushbu misolda AQSH dollari uchinchi valyuta rolini uynaydi. Jahon amaliyotida oxirgi yillargacha asosan uchinchi valyuta sifatida AQSH dollari qo'llanililardi, ya'ni barcha valyutalar jahon ayirboshlashida aynan shu valyutaga nisbatan katirovka qilishardi. Lekin oxirgi 1-2 yillar ichida Evopaning salohiyati oshib bormoqda hamda kross-kursni aniqlashda valyuta

sifatida Evro kengroq qo'llanilmoqda. Kross-kursdan foydalanish ancha og'ir va risklidir. Ammo ularni qo'llash quyidagi 2 xolatda zarur va foydalidir;

-sizing talabingizdagi valyutaga ega bo'lgan sotuvchilarda sizning valyutangizga talab mavjud emas. (Masalan, frank YAponiya ienasiga almashtirish kerak. Bu erda uchinchi valyuta AQSH dollari bulsin. YAponiya ienasi sotayotganlar ichida frank sotib olishni xoxlaydiganlar yo'q).

Oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda valyuta bozorida quyidagi valyuta kurslarining kurinishlaridan foydalaniladi;

Auditorlik faoliyatini o'rganuvchi va uning asosini tashkil qiluvchi audit fani korxonalarini ta'sis etishdan tortib uni boshkarish jarayoni, korxonaning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash va korxonaning faoliyatini tahlil qilishni uslubiy tomonlarini o'rgatadi. Xususan, korxonaning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, foydalanilayotgan resurslar zaxirasini kengaytirish, ularni ishlab chikarishga jalb etish, korxonaning raqobatbardoshligi darajasini oshirish, xujalik faoliyatiga hamda korxonaning iqtisodiy salohiyatiga to'g'ri baho berish kabilar uslubiy tomonlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari audit, korxonalarda buxgalteriya hisobotini tashkil etish, mavjud resurslardan foydalanish, samaradorlikka erishish yullarini aniqlash, tadbirkor va ishbiarmonlar faoliyatiga baho berish kabi masalalar echimini ham o'rgatadi. Jamiyatdagi munosabatlarda auditning zaruriyati xisobot berish kontseptsiyasi talablari bajarilishi yuzasidan kelib chiqadi. Bu bir tomon ikkinchi bir tomonga hisobot berish va majburiyat bajarilishini nazorat qilishni e'tirof etadi va bu nazorat ma'lum bir ma'lumot, tushuntirish yoki hisobot olishni nazarda tutadi. Hisobot berish quyi bo'g'in boshqaruvchilari yuqori bo'g'in boshqaruvchilarning aktsiyadorlarga hisobot berishi kerakligidan kelib chiqadi. Shuning uchun audit nazoratning mexanizmi sifatida yuzaga keladi va hisobot berishning bajarilishiga va ularning oydinlashtirilishiga yordam beradi.

Audit orqali vositachilik shartnomalari amalga oshadi, chunki bunda vositachining faoliyati nazorat qilinadi. To'g'ri ma'lumotlar olishda, berilayotgan axborotdagi

noaniqlikni aniqlashda audit yana ham zarurdir. Audit qabul qilinayotgan qarorlar sifatini va korxonalar aktivlarini taqsimlanishini yaxshilashga ham yordam beradi. Yana auditga sug'urta kafolati bajarilishini ta'minlaydigan chora sifatida qaraladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishini va iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida auditorlik faoliyati tez sur'atlar bilan rivojlanib taftish tushunchasini siqib chiqarmoqda. Audit va taftish tushunchalari keng ma'noda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rnatiladigan iqtisodiy nazoratni tashkil etish usullari hisoblanadi. Audit o'tkazishda hujjatli va haqiqiy taftishning ayrim amallari, ayrim xisob obektlarini taftish qilish usullaridan foydalaniladi. Yuqorida aytilganidek ichki auditning natijalari turli maqsadlarda foydalaniladi. Barcha auditning tashkiliy komponentlari CEAning byudjetga beriladigan hamda auditning ishonchlilik va maslahat tamoyillari asosida yillik audit rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Audit xo'jalik sub'ektining ommaviy moliyaviy hisobotini to'g'riligini, to'liqligini, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlar to'g'risidagi qonun va talablarga javob berishini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan mustaqil ekspertiza va taxlilni bildiradi. Bundan tashqari audit yana boshqa nazorat ishlarini o'z ichiga oladi. Auditning asosiy faoliyati sub'ektning iqtisodiy ahvoriga bog'liq faktlarni yig'ish va baholashdir. Yuqoridagilarni hisobga olib auditning asosiy faoliyat turlarini ko'rishimiz mumkin. Birinchidan, har qanday auditorlik faoliyatini yuritishning majburiy sharti bo'lib uning chegarasi hisoblanadi. Bunday chegaralar muayyan iqtisodiy sub'ektning o'lchamlari yoki tarmoq auditida ma'lumot tizimini tekshirish bilan aniqlanadi. Ikkinchidan, auditor audit ob'ekti va uni o'tkazilishidan manfaatdor bo'lganlar o'rtasidagi «axborot bo'shligini» to'ldirishga harakat qiladi. Bu asosan hisobotlarda ayrim ma'lumotlarni etishmasligi yoki hisobotdagi ma'lumotlar ishonchliligi bilan baholash qaror qabul qilish uchun foydalanish mumkin bo'lmagan holda. Uchinchidan, audit o'tkazayotgan shaxslarning malakasi asosiy shartlardan hisoblanadi. Auditor kerakli ma'lumotlarni yig'ish va o'lchovlarni tushunish orqali ma'lumotlarni baholashni yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari, auditor muomala me'yorlariga rioya qilish talab qilinadi, ya'ni u o'zini mustaqilligini saqlash va

tashqi hamda ichki ta'sirlarga qarshi tura olishi kerak. Bozor sub'ektlarining talabiga javob beradigan nazorat turlaridan biri – bu audit tizimidir. Auditning maqsadi - taqdim qilinayotgan hisobotlar to'g'riligi, xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatini aks ettirishi, uning qonuniyligi hamda moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi talablariga mos kelishini aniqlashdan iboratdir. Auditorning korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy hisobotini tasdiqlash to'g'risidagi xulosasining bo'lishi, mazkur moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun unga bo'lgan ishonchni oshiradi. Auditorlik tekshiruvlarini maxsus auditorlik firmalari yoki alohida sertifikatga ega auditorlar o'tkazishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajabov Sharof Ataboy O'g'li, Tijorat banklarida ichki audit xizmati va uni takomillashtirish. Magistrlik dissertatsiyasi
2. Suvanov A.X Tijorat banklarida konversion valyuta operatsiyalar hisobi va auditini takomillashtirish. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent 2019.
3. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.
4. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся стран. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994. – С.71.
5. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: ИНФРА-М, 2013. – С. 230-231.
6. <http://el.tfi.uz/mahsulot/tijorat-banklarida-konversion-valyuta-operatsiyalar-hisobi-va-auditini-takomillashtirish/>
7. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12274-tijorat-banklarining-valyuta-operatsiyalari>